

# INNOVATIONS IN SCIENCE AND EDUCATION SYSTEM

DEHLI, INDIA – APRIL 1

<https://eijmr.org/conferences/index.php/eimrc>

## ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSALARIDA XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARINI O'RGANISHDA INNOVATION TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

### O'rino boyeva Xolisxon Turobjonovna

Farg'ona viloyati Rishton tumani 1-son kasb-hunar maktabi  
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganishda foydalaniladigan innovatsion ta'limgan texnologiyalari va ularning afzalliklari haqida ma'lumotlar berilgan. Ushbu texnologiyalar asosidagi dars jarayonlarini qanday tashkil etish ko'rsatib o'tilgan.

**Tayanch so'z va iboralar:** Xalq og'zaki ijodi namunalari, ertaklar, hikmatli so'zlar, maqollar, ta'limgan innovatsiya, texnologiyalar.

Ta'limgan tizimini tubdan isloh qilish, milliy lashtirish, zavmonaviy bilimlarni berish va jahon standartlariga javob beradigan yetuk, bilimdon, ma'naviyatli kadrlarni tayyorlash bugungi kunda Davlat siyosatiga aylandi.

Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zlik va mustaqil davlatchiligidan timsoli, bebafo ma'naviy boylik, mamlakatimizning siyosiy va ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy taraqqiyotida g'oyat muhim o'rinnegi egallab kelayotgan buyuk qadriyatdir. Tilimizning jahon xalqlari orasida munosib o'ringa ega bo'lishi, uning yuksalishi, taraqqiy etishi, albatta, tilning madaniylik darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Xo'sh tilning madaniyligi tushunchasi qanday birliklarni o'z ichiga oladi. Bu biringchi navbatda, tilning adabiy til me'yorlariga egaligi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, shu tilda so'zlovchilarining tildan foydalanish etikasini bilish darajasiga bog'liqdir. Bizning qadimiy va navqiron o'zbek tilimiz ham uzoq va zalvorli kechmishni boshidan kechirgan qadimiy tildir. Bu haqida muhtaram prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tilimizga davlat tili maqomi berilganligini o'ttiz yilligi tantanasida shunday deb aytadilar: „Turkiy tillarning katta oilasiga mansub bo'lgan o'zbek tilining tarixi xalqimizning ko'p asrlik kechmishi, uning orzu-intilishlari, dard-u armonlari, zafarlari va g'alaalari bilan chambarchas bog'liqdir.“

O'qish darslarida bolalarni xalq og'zaki ijodi asarlari vositasida estetik tarbiyalashga ham alohida ahamiyat beriladi. O'qitilayotgan matn va uni o'rgatish metodlari bolaning estetik qabul qilish qobiliyatini, tabiyat va jamiyatdagi haqiqiy go'zallikni ajrata olish, kishilar hayoti va san'atdagi gozallikni his qilish kabi estetik fazilatlarni rivojlantirish uchun xizmat qilishi lozim. Bularning hammasi boshlangich sinif o'quvchilarini tarbiyalashda hamda ularning ma'naviy dunyosini boyitishda xalq og'zaki ijodi materiallarining alohida o'rni borligini ko'rsatadi. Boshlangich sinif o'quvchilarini ma'naviy barkamol inson qilib tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi namunalaridan unumli foydalanish yo'llarini ochib berish masalasi hozirgi metodika va pedagogikaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero, "Ona tili oqitish metodikasi" darslik va o'quv qo'llanmalarida, boshlang'ich sinif o'qituvchilarini uchun mo'ljallangan metodik kitoblarda, ayrim metodik maqolalarda xalq og'zaki ijodi asarlarini o'rganish masalasi o'zining metodik yechimini topgan.

Maktab yoshdagagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda alla qo'shiqlarining ijtimoiy-g'oyaviy mazmuni va tarbiyaviy ta'siri, xalq ertaklaridan maktabgacha yoshdagagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda foydalanish mazmuni va xalq maqollari vositasida maktabgacha yoshdagagi bolalarda dastlabki xulq-atvor madaniyatini shakllantirishda muhim ahmiyat kasb etadi.

Ertak – xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri, to'qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Maktabgacha yoshdagagi bolalarga

# INNOVATIONS IN SCIENCE AND EDUCATION SYSTEM

DEHLI, INDIA – APRIL 1

<https://eijmr.org/conferences/index.php/eimrc>

aytib, o'qib, hikoya qilib beriladigan ertaklardan ko'zlangan maqsad, birinchidan, bolalarni insoniy fazilatlar asosida tarbiyalash bo'lsa, ikkinchidan bo'lsa bolalarni dunyoqarashini o'stirish, ularda diqqat, xotira, tasavvur va motivlarni shakllantirishdan iboratdir. Bu ertaklarda o'rtoqlik va do'stlikning oljanobligi, kamtarinlik, saxiylik, to'g'riso'zlik, vatanpravarlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik fazilatlarini targ'ib qiluvchi jarayonlarni aynan maktabgacha yosh davridan boshlash va unga amal qilish zarurligi targ'ib qilinadi va bolalarni ham shu ertakdagi ijobiy obrazlardan namuna olishga undaladi.

Maqol xalq og'zaki badiiy ijodining keng tarqalgan janrlaridan biridir. Maqollar asosan hayotiy tajribalar asosida maydonga keladi. Asrlar bo'yli og'izdan-og'izga o'tib kelayotgan maqollarda keng mehnatkash xalq ommasining dunyoqarashi, jamiyat va mehnatga munosabati, ota-onaga hurmat va Vatanga cheksiz sadoqat motivlari mujassamlashgan. Shuningdek, maqollarda xalq orzu umidlari, insonparvarlik hislari ufurib turadi. Maqollar mavzu jihatidan boy, xilma-xil va rang-barangdir. Maktabda bolaning to'g'ri og'zaki nutqi, boshqalarni tinglash, ularning suhbatiga aralashib, fikr va munosabat bildirish, zarur bo'lganda, o'rtog'ining javobini to'lg'azish yoki tuzatish ko'nikmalar darkordir. Nutq bolalarga tahlil predmet bo'lib qoladi. Bu esa ularga katta qiyinchilik bo'lib tuyuladi.

Hikmatli so'zlar, maqol va matallar ozining eng qadimiyligi, yuksak ijodiy salohiyatga ega ajdodolarimizning kop asrlik ananalari, turmush-tarzi, tarixi, dunyoqarashi, turli etiqodlari haqida teran va mukammal malumot beruvchi manaviy va madaniy oltin merosimiz hisoblanadi. Bunday hikmat namunalari barkamol avlod tarbiyasiga kuchli badiiy-estetik va ruhiy-ijtimoiy tasir korsatish qudratiga ega. Binobarin, Hikmatlarni organish, ularni targ'ib va tadqiq qilish orqali xalqimiz manaviyatiga oid yangi-yangi malumotlarni bilib olish mumkin. Eng, muhimi, bunday hikmatlar yoshlarimiz tafakkurini bebaho injular bilan boyitadi.

Ta'lif barcha faol va sust o'zgarishlar ta'sirini qabul qilavermaydi, jamiyatda bo'layotgan voqealarga esa o'z ta'sirini o'tkazadi. Ana shu nuqtai nazardan ta'limdagi o'zgarishlar faqatgina natija sifatida emas, balki jamiyatning kelgusidagi o'ziga xos rivojlanish shartidir.

Har bir darsning mazmuni va g'oyasidan kelib chiqqan holda dars maqsadi va metodlari beegilanishi lozim. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida turli janrdagi asarlarni o'rganishda ham o'quvchilarning badiiy asarni chuqur o'zlashtirishlarini, asarni tahlil qila olishlarini ta'minlashi kerakligini hisobga olgan holda metod tanlashga c'tibor qaratilishi lozim. O'qish darslarida izohli o'qish, ijodiy o'qish, yarim izlanishli, reproduktiv metodlardan foydalanish mumkin.

Bu o'rinda ijodiy o'qish metodiga ham e'ibor qaratildi. Ijodiy o'qish asar o'qib berilgach, o'quvchilarda hosil bo'lgan tasavvurni aniqlash maqsadida o'tkaziladigan suhbatda, hikoyalardagi lavhalarga sarlavha topishda, reja tuzishda, qayta hikoyalashda, asar mazmuniga mos rasrnlar chizishda, asar yuzasidan ijodiy xarakterdag'i yozma ish yozishda o'quvchilarini faollashtiradi.

Izlanish metodidan ham foydalaniladi. Bu asar syujeti yuzasidan o'quvchilarga savol tuzdirishda, qahramonlarga tasvir berishda o'z ifodasini topagi. Dars davomida reproduktiv metoddan ham foydalaniladi. Masalan, o'qituvchi dastlabki o'qish darslarida o'zi asar matnini qismlarga bo'ladi, yozuvchining aytmoqchi bo'lgan muhim fikriga o'quvchilar diqqatini tortib, uni aniqlab ko'rsatadi, uni sarlavha shakliga keltiradi, yozuvchi voqeani ifodalashda foydalangan so'z, ibora, ifodalarni aniqlab ko'rsatadi, ularga yuklatilgan ma'noni o'quvchilar bilan birga aniqlaydi. Hozirgi ta'lif metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy vositalardan biri interfaol ta'lif va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. O'quvchilar bilimini mustahkamlashda ertak matnini o'rganish darslarida o'yinlardan foydalanish ham yaxshi samara beradi.

Ertakning o'tkir, maroqli sujeti, voqealari rivojidagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g'oyaviy yo'nalishi, unda ezzulik kuchining yaxshilikning doimo g'alaba qilishi bolalarni o'ziga tortadi.

# INNOVATIONS IN SCIENCE AND EDUCATION SYSTEM

DEHLI, INDIA – APRIL 1

<https://eijmr.org/conferences/index.php/eimrc>

Ertakda qabul qilingan hikoya qilish shakli bir xil so'z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta'sirchanligi, ifoda vositalarining jonliligi, bolalar uchun juda qiziqarligidir. Ertakda qatnashuvchilar ko'pincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo'lgan yovuz, baxil, ochko'z kishilar timsoli boiadi.

Ertaklarda keltirilgan maqollar ustida ishlash, ularda ilgari surilayotgan g'oyalarni bolalar ongiga yetkazish, yod oldirish yo'li bilan bog'lanishli nutqni o'stirish, nutqning ta'sirchanligini oshirish lozim. Masalan, „Rostgo"y bola" (1-sinf) ertagida bola o'z rostgo'yligi bilan podshoga ma'qul bo'lganligi hikoya qilingan.

## Foydalanimanligi adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. Xalq so'zi. 2019-yil 5-oktabr 1-bet (O'zbekiston Respublikasining „Davlat tili hqida “gi qonuni qabul qilinganligining o'ttiz yilligini keng nishonlash tog'risida “gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori.
2. Sh. Mirziyoyev. Xalq so'zi. Milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligidan timsoli. 2019-yil, 22- oktyabr, 1-bet. Prezident Sh. Mirziyoyevning o'zek tiliga davlat tili maqomi berilganligining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagি nutqi.
3. F. Adilova. Yaxshilik tushunchasini ifodalovchi maqollar semantikasi, Toshkent .2018-yil 8-bet.
4. Qosimova K va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. ..:"Noshir".2009.
5. Aldjanova I.R. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda pedagogik innovatsiyalardan foydalaniш. – T.: „Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2011.
6. Bahriyev A., Bahriyeva N. Yangi pedagogik texnologiyalar orqali o'qitishda ichki motivatsiyani shakllantirish. Xalq ta'limi jurnali, 2006.